

OILA INSTITUT TUSHUNCHASI, MAZMUN VA MOHIYATI

Karimjonova Gulshanoy Sherali qizi

Namangan davlat universiteti

Sotsiologiya yo'nalishi 1-kurs magistranti.

Annotatsiya: Oila tushunchasining mazmun-mohiyati xususida gap ketganda, ilmiy-nazariy manbalarda aytilganidek, oila insonlarga xos “tabiiy-biologik (turмуsh qurish, bolani dunyoga keltirish), iqtisodiy (mulkiy munosabatlar, uy-ro‘zg‘orni boshqarish), huquqiy (nikohni fuqarolik holatlarida qayd etish), ma’naviy (er-xotin, ota-ona va bolalar o‘rtasidagi mehr-muhabbat tuyg‘usi va boshqalar) munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birlikdir. Ushbu ilmiy maqolada oila institute tushunchasi uning mazmun mohiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Jamiyat, qadriyat, millat, S.Lipset, D.Landberg ijtimoiy institute, millat, A.G.Xarchyov.

Ma’lumki, Oila odamlarning ijtimoiy hamjamiyatining eng qadimiy shakllaridir. U sinflar, millatlar va davlatdan oldin paydo bo‘lgan. Uning ijtimoiy ahamiyati hayotning “ishlab chiqarish va ko‘paytirish”, bolalarni tarbiyalash, shuningdek, ularga mehnat ko‘nikmalari va an‘analarini o‘tkazish, ijtimoiy va individual ongni shakllantirish bilan bog‘liq. Tarixiy rivojlanish jarayonida, bir tomondan, oila va jamiyat, ikkinchi tomondan, oila va shaxs o‘rtasidagi munosabatlar muayyan jamiyatdagi hukmron ishlab chiqarish usuli va madaniy an‘analarning tabiatiga qarab, muntazam ravishda o‘zgarib turadi.

Ijtimoiy institutlar - bu aniq ahamiyatga ega ijtimoiy vazifani bajaruvchi, o‘zining a‘zolarini bajargan ijtimoiy rollari asosida birgalikda ijtimoiy qadriyatlar, me‘yoriy va yurish-turish namunalari, vazifalarini bajarish yo‘lidagi maqsadni birgalikda amalga oshirishni ta‘minlovchi odamlarning tashkiliy birlashmasidir. Har bir institut o‘ziga xos ijtimoiy vazifani bajaradi. S.Lipset va D.Landberg ijtimoiy institutning to‘rtta asosiy vazifalarini belgilashdi.

1. Jamiyat a'zolarini yetishtirish. Bu vazifani bajaruvchi asosiy institut oiladir. Ammo bunga boshqa institutlar ham daxldor, masalan: davlat;
2. Ijtimoiylashtirish - odamlarga mazkur jamiyatda o'rnatilgan yurish-turish namunalari va faoliyat usullarini taqdim qilish (oila, ta'lim, diniy usullar orqali).
3. Ishlab chiqarishga va taqsimlash ijtimoiy-iqtisodiy va nazorat institutlari orqali ta'minlashadi;
4. Boshqarish va nazorat ishlari tartib-intizomining taalluqli turlarini amalga oshiruvchi ijtimoiy me'yori va ko'rsatmalar: axloqiy va huquqiy me'yorlar, udumlar, ma'muriy qarorlar orqali amalga oshirildi.

Oila ijtimoiy institut sifatida, aniq vazifani bajarayotgan odamlardan tashkil topgan birlashmadir. Ular birgalikda va maqsadini ko'zlaydilar, shu maqsad yo'lida har bir odam o'zining ijtimoiy vazifasini bajaradi. Bu saviyada boshqaruvchi tuzim mustaqil tuzim sifatida ajralmagan bo'ladi[2]. A.G.Xarchyov oila institut bu - nikoh va qondoshlikga asoslangan umumiy yashash, o'zaro javobgarlik bilan bog'langan odamlar birlashmasi deb ta'riflaydi. Oila ijtimoiy institut sifatida, aniq vazifani bajarayotgan odamlardan tashkil topgan birlashmadir. Ular birgalikda va maqsadini ko'zlaydilar, shu maqsad yo'lida har bir odam o'zining ijtimoiy vazifasini bajaradi. Bu saviyada boshqaruvchi tuzim mustaqil tuzim sifatida ajralmagan bo'ladi. A.G.Xarchyov oila institut bu - nikoh va qondoshlikga asoslangan umumiy yashash, o'zaro javobgarlik bilan bog'langan odamlar birlashmasi deb ta'riflaydi.

Oila ijtimoiy institutning o'ziga xos xususiyatlari quydagilar: jinsiy va fiziologik ehtiyojlarning mavjudligi, birgalikda yashash, boshqa odamlar bilan muloqot, jamiyatda farzandlarni shaxs sifatida tan olinishi, o'z-o'zini anglash va boshqalardir. Oilaviy munosabatlar eng avvalo nikohdan boshlanadi. Nikoh - ayol va erkak munosabatlarini tarixiy o'zgaruvchan ijtimoiy shaklidir, bu munosabatlar orqali jamiyat ularning jinsiy hayotining tartibi va huquqlarini belgilaydi. Ularning qondoshlik va erxotinlik huquqi va majburiyatlarini belgilaydi. Ammo oila nikohga nisbatan ancha murakkab munosabatlar tizimini belgilaydi.

Oilaning muhim ahamiyatga ega bo'lgan yana bir vazifasi tarbiyalashdir. Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy, huquqiy va estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Oila inson deb ataluvchi binoning faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmasdan, balki uning so'nggi g'ishti qo'yilguncha javobgardir. Barkamol avlodni tarbiyalash oila oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Farzandlar ongida Vatanga muhabbat tuyg'ulari oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi.

Oilaviy munosabatlarning o'ziga xos tiplari: An'anaviy oila – Jamiyatda ijtimoiy guruh sifatida bunday oilalarning maqsadi naslni davom ettirish va bunda oilaviy an'ana va qadriyatlar saqlab qolishdir. Bu oilalarda turmush o'rtoqlar barqarorlik va uzluksizlikni qadrlashadi. Sheriklik munosabatlariga asoslangan oila – Bunday oila a'zolari o'rtasidagi tenglik asosiy tamoyil hisoblanadi. Oilada qaror qabul qilish uchun teng javobgarlik, umumiy qarashlar va nizolarni hal qilish qobiliyatining yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Diktatorlik ustun bo'lgan oila- Oila a'zolaridan birining kuch-qudratini ustunligi bo'lib, u ko'pincha zo'ravonlikka (ham axloqiy, ham jismoniy, ham ruhiy) va avtoritar rejimga asoslangan bo'ladi. Bunda er yoki xotindan birining ikkinchisiga yoki oilaning qolgan a'zolariga nisbatan diktaturas ifodalanishi mumkin. Bunday o'zaro ta'sir natijasida ko'pincha og'ir psixologik travma va qo'rquv hissi paydo bo'ladi.

Oila - ijtimoiy institut sifatida bir qator bosqichlardan o'tadi. Bu bosqichlarning ketma-ketligi oilaviy jarayon yoki oilaning hayot tarzini tashkil qiladi. Xususan:

- A) birinchi nikohdan o'tish-oilani tashkil bo'lishi.
- B) bolalanishning boshlanishi - birinchi bolaning tug'ilishi.
- V) bolalanish nihoyasi - kenja bola tug'ilishi.
- G) "bo'shagan uya" oxirgi farzandning nikohi va uning oiladan bo'linishi.
- D) oilaning tugatilishi-er-xotinlardan birini o'limidir.

Bugungi kunda O'zbekistonda oilalarni va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar, jumladan yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlash, ta'lim imtiyozlari, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish, qo'shimcha

daromad olish imkoniyatlarini kengaytirish va boshqa qator yo'nalishlarda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat oilalarning farovonligiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. 2023-yildan boshlab "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan respondentlardan o'tkazilgan so'rov natijalari hamda rasmiy statistik ma'lumotlar tahlili asosida oilalarning umumiy baxtlilik darajasi aniqlanish yo'lga qo'yildi.

Jamiyatda oila doim ham muhabbat asosiga qurilavermaydi. Urf-odat, sharoit taqozosi, ota-ona orzusi bilan ham oila tashkil topishi mumkin. Ota-onalar farzandlar orqali kelajak avlodning, naslning davomiyligini ta'minlaydilar, ya'ni oilaning reproduktiv funksiyasi namoyon bo'ladi. Ota-ona har qanday sharoitlarda ham farzandlari oldidagi o'z vazifa va majburiyatlaridan voz kechishlari mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Kurbonova Guzal Saydaxmatovna Renessans Ta'lim Universiteti ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi. (2025). OILA TUSHUNCHASINING MAZMUNI-MOHİYATI VA INSTITUTSIONAL SHAKLLANISHI. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15730246>
2. G'ulom, X., & Qizi, S. G. A. (2022). OILA TUSHUNCHASI VA OILADAGI IJTIMOİY MUNOSABATLAR TIZIMI. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1(2), 135-140.
3. Антонов А.И. Социология семи. Учебник. – Москва: INFRA-M, 2012.
4. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. – T.: "Yangi asr avlodi", 2003. – B.254 b
5. Алимов Усмонхон. Оилада фарзанд тарбияси: У.Алимов; масъул мухаррир А.Мансур. - Тошкент: Мовароуннахр. 2012. - Б. 140.